

OILA BOLANING INDIVIDUAL QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA
TA'SIRI

Biytimirova Dilfuza

*Toshkent shaxri Bektrmir tumani**Vodnik daxasi 291 - IDUM psixologi*

Annotatsiya: *Oila bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo'g'inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan [tasiri benihoyat kattadir](#), Bolaning mustaqilligi nisbiy bo'lib, u ko'p jihatdan kattalar qaramog'i va yordamiga muhtoj bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Oila - tarbiya maskani, avtoritar, sotsiometrik tajribalardan, zamonaviy oilalardagi bolalarni.*

Oila - tarbiya maskani. Tarbiya uning eng muhim vazifalaridan sanaladi. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarini, [balki ulardagi xatti-harakat](#), axloq-odob, muomala qoidalarini ham o'zlashtirib boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy maqom qadriyatlar ona suti, oila a'zolarining mehri va namunasi bilan bola xulqi, ongiga singiydi. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma'naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o'rinda misoli ota-ona - san'atkor, bola - san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir.

O'zbek oilalariga xos yana boshqa xarakterli xususiyatlar ham mavjud. Ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Ya'ni, bolajonlilik, serfarzandlik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, oila byudjetining ota-ona tomonidan boshqarilishi, kichiklarning kattalarga izzat-ikromi, oila g'ururi, sha'nini himoya qilish uning har bir a'zosi uchun burchga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyga alohida mehr-muhabbat tuyg'usini rivojlantiradi.

Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, u farzand tug'ilmasdan ancha oldin boshlanadi. Ya'ni, bo'lajak ota-onaning salomatligi, kayfiyati, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy va jismoniy tayyorligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmuni farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, Vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analaridan g'ururlanish hissini uyg'otishdan iborat. Xullas, insonning dastlab oila sharoitida shakllanib yetiladigan barkamol ma'naviyati yuksak ma'naviyatli jamiyat barpo etishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bola o'z tarbiyasiga ko'ra g'oyat ta'sirlanuvchan bo'ladi. Ota-onalar o'z bolalarini bilishlariga nisbatan bolalar o'z ota-onalarini yaxshiroq biladilar. Bola ilk yoshligidanoq kattalarning harakatlariga taqlid qiladi, ularning so'zlarini takrorlaydi. Kishi ulg'aygach, bolaligida ko'rgan hamma narsani takrorlamaydi, ammo ana shu narsalarning barchasi uning qalbida, ongida o'zidan qandaydir iz qoldirgan holda saqlanib qoladi. Shuning uchun ham oilada bolalarga beriladigan nasihat va o'gitlar, ma'rifiy g'oyalar shaxs tarbiyasi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Oilada ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlar haqida fikr yuritilishi ta'lim-tarbiyaga katta ta'sir etadi. Chunki oila muhitida bolalarni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar farzand barkamolligining asosini tashkil etadi.

Oilada bolalarni ilm olishga da'vat etish, bilimli kishilardan [yaxshilik kelishiga ishonish](#), ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligi haqidagi o'g'itlar, ilm-ma'rifat ishlari, ezgu maqsadlarni amalga oshirish muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Chunki, inson ilm-ma'rifatli bo'lsa, odamlarga huzur baxsh etadi. Bilimli bo'lish bilan birga, yomon xatti-harakatlarni sodir etishdan saqlanish zurlurigi, manmanlik, maqtanchoqlikning zararli oqibatlarini xususida nasihatlarini bayon etish oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Oila bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo'g'inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan [tasiri benihoyat kattadir](#), Bolaning mustaqilligi nisbiy bo'lib, u ko'p jihatdan kattalar qaramog'i va yordamiga muhtoj bo'ladi. Ota-onaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo'ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va psixik rivojlanishining stimulyatori bo'lib xizmat qiladi.

Albatta, har bir oiladagi munosabatlar o'ziga xos hamda takrorlanmasdir. Biroq ota-ona va bola munosabatlarining umumiy jihatlari ham mavjuddir. Ota onalar bolalar xulq-atvorini boshqarishda qanday usullardan foydalanishlariga ko'ra o'rtadagi munosabatlar ko'pincha "demokratik" va "avtoritar" nazorat qiluvchi kabilarga ajratiladi. Bolalarga oilaviy ta'sir etishning "demokratik" shakli uchun quyidagilar xos: bolaga ko'p narsaga ruxsat beriladi, bola bilan ko'p aloqa qilinadi, unda ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'linadi, ota-onalar bo'lar-bo'lmas ta'qiblarini qo'yimaslikka harakat qiladilar, buning o'rniga ular bolalarga oiladagi tartib qoidalarini tushuntirishga intiladilar. Iloji boricha bolalarining [savollariga javob berishga](#), ularning qiziquvchanliklarini qondirishga xapakat qiladilar. Oiladagi "avtoritar" muhit bolalarga nisbatan haddan tashqari ta'qiqlarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. "Hukmron" ota-onalar boladan to'liq bo'ysunishini talab qiladilar. Bunday oilalarda bolalarga xulq-atvor qoidalarini tushuntirishga qaratilgan muloqot kamdan-kam o'tkaziladi.

Shu narsa aniqlanganki, "avtoritar" va "demokratik" oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning shaxsiy xususiyatlarida muayyan farq mavjud bo'ladi. "Demokratik" oilalarning farzandlari ijodkorlikka moyil tashabbuskor, liderlikka intiluvchan, konformizmni (guruh; fikriga tobe bo'lishni) inkor etuvchi ijtimoiy munosabatlarida ko'proq emotsiyalarni his etuvchi bo'ladilar.

Sotsiometrik tajribalardan ma'lum bo'lishicha, oiladagi muhit iliq ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar demokratik asosga qurilgan bo'lsa, bola o'z tengdoshlarining [orasida jamoada yuqori mavqega](#), aksincha, nosog'lom oilada tarbiyalanayotgan bolalar ancha past mavqega ega bo'ladilar.

Oiladagi psixologik iqlim, ya'ni bolalar bilan bo'lgan muloqot xarakteri, [ularga mexr-muhabbat bilan](#), diqqat e'tibor bilan munosabatda bo'lishi o'sib kelayotgan shaxs axloqiy qiyofasining shakllanishida o'ta muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham barkamol inson tarbiyasi avvalo oiladagi muhitning sog'lom bo'lishini taqozo qiladi.

Oilaning bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni beqiyos ekan, oila a'zolari bolalarining psixik rivojlanishini ta'minlash uchun oilada sog'lom munosabatlar muhitini yaratishlari lozim, tarbiyachilarning eng asosiy yordamchisiga aylanishlari kerak.

Bolaning psixik rivojlanishida uning boshqa bolalar bilan bo'ladigan muloqati muhim ahamiyatga egadir. Tengdoshlariga bo'lgan qiziqishlari bolada kattalarga bo'lgan qiziqishidan biroz keyinroq bir yoshning oxirlarida paydo bo'ladi, biroq u borgan sayin, ayniqsa, bog'cha yoshi davrida mustahkamlanib boradi.

Ko'p bolali oilalarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola shaxsining rivojlanishiga aka-ukalari, opa - singillar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aka-ukalar va opa - singillar bolaga eng yaqin bo'lgan mikromuhit tarkibiga kirib, unda markaziy o'rinni egallaydi. Ba'zi [tadqiqotchilar](#), hatto, shunday fikrdaki, oila azolarining soni ko'paygan sari bolalarga ota-onaning ta'siri susayib, aka-ukalar opa-singillar ta'siri kuchayib boradi. Katta akalari va opalari davrasida bola o'zini emotsional himoyalanganday his qiladi.

Aka-opalar esa o'zlarini mehribonlik his-tuyg'ularini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular o'rtasida bola o'zining tashvishlari, qiziqishlari bilan o'rtoqlashishi mumkin. Akalaru, opalar esa uning ehtiyojlari, [jumladan](#), muloqotda bo'lish extiyojini qondirishlari mumkin.

Bolaning hayotida oilaning ahamiyati juda katta: oila bolaning sotsializatsiyasi uchun muassasa bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan ota-onalar farzandlarining ta'limiga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kerak. Zamonaviy oilalardagi bolalarni tarbiyalash muammolari pedagoglar va psixologlar tomonidan ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, oilada har bir kishi o'zlarini qulay his qilishi va bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha narsani olishi uchun ota-onalar unga rioya qilishlari kerak bo'lgan bir necha aniq masalalar mavjud.

Kichikroq yoshdagi o'yin davomida ota-onalar bolaga e'tibor berishlari kerak, lekin uni boshqarishga muayyan xatti-harakatlarning qat'iy nazorati kerak emas. Erni mustaqil bilim, tushunish uchun bo'sh qoldiring dunyo bolasi va uning hayolining rivojlanishi.

Oilada bolalarning estetik ta'limi ham esda qolishi kerak. Bolani chiroyli va ruhiy dunyo bilan tanishtirish uchun ota-onalar kerak. Bolani nafaqat boshqalarning ishlari bilan tanishtirish, balki unga modellashtirish, chizish, qo'shiq aytilish va hokazolarni qo'llash imkoniyatini berish ham muhimdir.

Bola o'sganidek, o'z qarorlarini qabul qilish va unga qiziq bo'lgan narsalarni rivojlantirish imkoniyatini berish juda muhimdir. Shu bilan birga, uning muammolari va qo'rquvlari bilan bolani yolg'iz tashlab bo'lmaydi. U muvaffaqiyatli bo'lmasa, uni qo'llab-quvvatlaydigan va unga yordam beradigan odam bilan birga bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Avloniy. "Turkiy guliston yohud axloq". T., "O'qituvchi". 1994
2. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., "Aloqachi", 2007
3. M. Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi – T. "O'qituvchi". 1999
4. www.ziyo.net